



Abdulla Avloniy (1878-1934)

Har kun o'luran shomg'cha g'mga girifdor,

Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.

Har kimsa emas bu meni ahvolima voqif,

Men xastayamu millatim o'lmish nega bemor?

***Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmasdan bo'lur o'tkir.***

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir, mashhur tarbiyachi Abdulla Avloniy Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan. U eski maktabda ta'lim oldi. U o'z tarjimai holidagi yozishicha: "12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim, 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda "Tarjimon" gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim".

Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ulandi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tibdagi maktab tashkil etgan yosh pedagog o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lim – tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Abdulla Avloniy maktablar uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallimim (1912)", "Tarix", "Turki gulistoni va axloq" (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan, 1895-yillarda ijodiy faoliyatni boshlagan Avloniy "Qobil", "Shuhrat", "Hijron", "Avloniy", "Surayyo", "Abul fayz", "Indamas" tahalluslari bilan she'r, hikoya, feleton va kichik hajimli dramatik asarlar (1900-1917) yaratdi.

Shoir o'z she'rlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qilar va kishilarni bilimga, marifatga chaqirar edi.


***Maktab misni tillo qilur,
Maktab sizni mullo qilur.***

Abdulla Avloniy 1917-yilgacha mahalliy halq vakillaridan yetishib chiqqan yirik jurnalist sifatida Toshkentda “Shuhrat”, “Osiyo” kabi gazetalarni tashkil etadi. U “Advakatlik osonmi?”, “Ikki muhabbat”, “To’y”, “Laylo va majnun”, “O’liklar” kabi dramatik asarlarida jaholat, bid’at, bilimsizlikning fojiali oqibatlarini, qo’pol va yaramas urf-odatlarini fosh etadi.

Abdulla Avloniy shoir sifatida o’nlab, yuzlab she’rlar bitgan. Ular xoh eski urf-odatlar haqida bo’ladimi xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo’ladimi, hamma-hammasida inson va tarbiya, axloqiy go’zallik va ma’naviy boylik haqida kuylaydi. Shuning uchun ham uning she’rlarida xalq didaktikasi bilan yangi zamon pedagogikasi uyg’unlashib ketadi.

Abdulla Avloniy o’zbek xalqi maorifi, ma’daniyati, ma’rifati bilan bir qatorda qo’shni afg’on xalqi ijtimoiy - siyosiy hayotida hayotida ham 20-yillarda muhim rol o’ynagan. U malum muddat Afg’oniston xalq ma’orifi vaziri, so’ng Sho’rolar ittifoqining Afg’onistondagi konsuli elchisi vazifalarida xizmat qilgan.

A.Avloniy 1920-1930 yillarda respublikamiz ro’znoma va oynomalarida qator maqolalari bilan faol qatnashadi.



*Avloniy O'rta Osiyo Davlat univarsitetida dars bersh
bilan birga, qator adabiyot darsliklarining muallifi bo'lgan. U
1934 yili 56 yoshida vafot etadi.*